

“Yillar armoni”ni ko’rib



13.12.2022

“Yillar armoni”ni ko’rib

Joriy yilning 6 - 7-dekabr kunlarida O’zbekiston davlat drama teatrida O’zbekiston xalq shoiri, O’zbekiston qahramoni Abdulla Oripovning 80 yilligiga bag’ishlangan, dramaturg Uchqun O’sarov qalamiga mansub, yosh, iqtidorli rejissor Rasuljon Tog’ayqulov tomonidan sahnalashtirilgan “Yillar armoni” spektakli bo’lib o’tdi. Ushbu spektaklda unversitetimizning bir qator fakultetlari talabalari ishtirot etishdi. Ular qatorida “Yer resurslarini boshqarish fakulteti” jamoasi va talaba-yoshlari tomoshabin sifatida ishtirot etishdi. Shuni aytish joyizki, Abdulla Oripov chin ma’noda o’zbek xalqining zabardast shoiri edi. Uning har bir she’ri vatanni madh etgan. Bugungi spektaklda ham shoirni bu yorug’ dunyoga kelishi, bolaligi, talabalik davri hamda ijodga ming bir mashaqqatlar bilan kerib kelishi aktiyorlarimiz tomonidan juda chiroyli sahnalashtirilgan. Barcha tomoshabinlar talaba-yoshlar ushbu spektakldan katta taassurotlar bilan qaytishdi.



“Yer resurslarini boshqarish” fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova